

YASMIQ NAV VA TIZMALARINING O`SUV DAVRI

Dukkakli va moyli ekinlari seleksiyasi laboratoriyasi mudiri: q/x.f.f.d.

Жабаров Фаррух Одирович

Annotatsiya: Ushbu maqolada lalmikor maydonlar sharotida nazoratli nav sinash ko'chatzorida o'rganilgan yasmiq (*Lens culinaris*) ning 30 ta nav va tizmalarining o'suv davri davomiyligi andoza nav bilan taqqoslangan holda o'rganilganlik haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация: В статье представлены сведения о продолжительности вегетационного периода 30 сортов и гребней чечевицы (*Lens culinaris*), изученных в контролируемом сортоиспытательном питомнике в условиях дождливых полей, по сравнению с модельным сортом.

Annotation: This article presents information about the duration of the growing season of 30 varieties and ridges of lentils (*Lens culinaris*) studied in a controlled variety trial nursery under the conditions of rainy fields, compared with the model variety.

Kalit so'zlar: lalmikor maydon, yasmiq, ertapisharlik, nazoratli nav sinash ko'chatzori, nav, tizma, qaytariq, gullah, dukkak hosil bo'lishi

Ключевые слова: дождливое поле, чечевица, раннеспелый, питомник контролируемых сортоиспытаний, сорт, хребет, обратимый, цветение, формирование стручков

Keywords: rainy field area, lentil, heat-resistant, nursery of controlled variety trials, variety, ridge, reversible, flowering, formation of pods

Kirish: No'xat va yasmiqni o'z ichiga olgan dukkakli don ekinlari dunyo aholisining taxminan 30 foizi uchun ozuqaviy oqsilning asosiy manbai hisoblanadi[1].

2021-yilda Kanada yasmiq ishlab chiqarish bo'yicha 1,606,441 tonna bilan eng yuqori o'rinni, undan keyin Hindiston va Avstraliya egalladi. Faostat ma'lumotlariga ko'ra, 2021- yilda dunyoda jami yasmiq ishlab chiqarish 5,610,104 tonnaga yetdi.

2021-yilda Kanadada yasmiq yetishtirilgan yer maydoni taxminan 1,7 million gektarni tashkil etdi. Hindiston 2021-yilda 1,7 million gektardan ko'proq yasmiq hosilini yig'ib oldi. Dukkaklilar eng yaxshi ozuqaviy xususiyatlarga ega oziq-ovqat manbalaridan biri bo'lib, uning iste'moli inson salomatligi uchun bir qator foydali xususiyatlar bilan bog'liq[2]. Yasmiq ba'zan "kambag'alning go'shti" deb ataladi. Bunday ta'rif qadimgi Yevropada paydo bo'lgan. Hosildorlikning tez o'sishisiz, dukkakli ekinlar ishlab chiqarishdagi farq 2050 yilga kelib 10 million tonnagacha ko'tarilishi taxmin qilinmoqda [3]. Olingan ma'lumotlarga ko`ra yasmiqning bir qator stress omillarga chidamli ota va ona genotiplarini to`g`ri tanlab duragaylash ishlari olib borilganda, yasmiqning hosildor va abiotik omillarga chidamli navlarini yaratishni ta`kidlagan [4]. Bundan tashqari, iqlim o'zgarishi tufayli dukkaklilar rivojlanishining reproduktiv bosqichida haroratning o'zgarishi birinchi navbatda ularning hosildorligi va ozuqaviy qiymatiga ta'sir qiladi. Gullash va meva berish davrida 32°C dan yuqori harorat reproduktiv organlarga zarar yetkazadi, bu esa yasmiq donining hosilida sezilarli yo'qotishlarga olib keladi [5].

Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutining Qamashi tumani lalmikor tajriba maydonida yasmiqning 30 ta nav va tizmalarini iqlim omillariga bardoshli, serhosil va oqsil miqdori yuqori bo'lgan nav va tizmalarini tanlab olish maqsadida 3 qaytariqda 40 donadan qo'l kuchi yordamida ekib o'rganildi. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra yasmiq ekini 16-fevral sanasida ekilganda havo harorati o'rtacha 5-6 °C bo'lganda 4-6 mart kunlari 90-98 % unib chiqganligi kuzatildi. Yasmiqning nav va tizmalarini shoxlanish fazasi qaytariqlar bo'yicha tahlil qilinganda o'rtacha 28-30 martda aniqlangan bo'lsa bunda havo harorati past bo'lganligi uchun kech shoxlanganligi kuzatildi. Bunda andoza navlar ya'ni "Darmon", "Sarbon" va "Oltin don" navlari 4 martda unib chiqgan bo'lsa, andoza navlar bilan bir kunda 21 ta tizmalar unib chiqqanligi kuzatildi va qolgan 6 ta tizmalar esa 5 – 6 mart kunlari unib chiqqanligi aniqlandi (**1-jadval**).

1-jadval

Nazorat ko`chatzoridagi yasmiq nav va tizmalarining o'suv davri ko'rsatkichlari (Qamashi-2022 y.).

| No | Nomi | Unib chiqish, sana | Unib chiqqan o'simliklar soni, dona | Shoxlanish, sana | G'uncha-lash, sana | Gullash, sana | Dukkak hosil bo`lish, sana | Pishish, sana | Pishishgacha bo`gan kun |
|----|---------------------------|--------------------|-------------------------------------|------------------|--------------------|---------------|----------------------------|---------------|-------------------------|
| 1 | Darmon (andoza) | 4 mar | 38 | 28 mar | 14 apr | 22 apr | 11 may | 20 may | 77 |
| 2 | Sarbon (andoza) | 4 mar | 37 | 29 mar | 15 apr | 23 apr | 12 may | 20 may | 77 |
| 3 | Oltin don (andoza) | 4 mar | 37 | 28 mar | 14 apr | 21 apr | 11 may | 19 may | 76 |
| 4 | KR20-LIEN-E-05 | 4 mar | 37 | 29 mar | 15 apr | 22 apr | 10 may | 19 may | 76 |
| 5 | KR20-LIEN-E-06 | 4 mar | 37 | 28 mar | 15 apr | 22 apr | 11 may | 21 may | 78 |
| 6 | KR20-LIEN-E-07 | 4 mar | 37 | 30 mar | 15 apr | 22 apr | 11 may | 20 may | 77 |
| 7 | KR20-LIEN-E-09 | 5 mar | 36 | 29 mar | 14 apr | 21 apr | 12 may | 21 may | 77 |
| 8 | KR20-LIEN-E-10 | 4 mar | 37 | 29 mar | 15 apr | 22 apr | 12 may | 20 may | 77 |
| 9 | KR20-LIEN-E-12 | 4 mar | 37 | 29 mar | 14 apr | 21 apr | 12 may | 20 may | 77 |
| 10 | KR20-LIEN-E-13 | 4 mar | 38 | 29 mar | 15 apr | 21 apr | 12 may | 20 may | 78 |
| 11 | KR20-LIEN-E-14 | 5 mar | 37 | 28 mar | 15 apr | 22 apr | 12 may | 21 may | 77 |
| 12 | KR20-LIEN-E-15 | 5 mar | 37 | 30 mar | 15 apr | 23 apr | 11 may | 19 may | 76 |
| 13 | KR20-LIEN-E-16 | 4 mar | 36 | 29 mar | 14 apr | 20 apr | 13 may | 21 may | 78 |
| 14 | KR20-LIEN-E-17 | 4 mar | 36 | 28 mar | 13 apr | 20 apr | 12 may | 21 may | 78 |

| | | | | | | | | | |
|---------------------------------|----------------|-------|----|-----------|--------|--------|-----------|-----------|----|
| 15 | KR20-LIEN-E-18 | 4 mar | 37 | 29 mar | 14 apr | 20 apr | 11 may | 21 may | 77 |
| 16 | KR20-LIEN-E-21 | 4 mar | 36 | 29 mar | 14 apr | 21 apr | 11 may | 20 may | 77 |
| 17 | KR20-LIEN-L-01 | 4 mar | 38 | 29 mar | 14 apr | 21 apr | 12 may | 21 may | 78 |
| 18 | KR20-LIEN-L-04 | 4 mar | 38 | 29 mar | 15 apr | 22 apr | 12 may | 21 may | 78 |
| 19 | KR20-LIEN-L-06 | 5 mar | 37 | 29 mar | 14 apr | 21 apr | 11 may | 20 may | 76 |
| 20 | KR20-LIEN-L-07 | 4 mar | 37 | 28 mar | 13 apr | 20 apr | 10 may | 20 may | 76 |
| 21 | KR20-LIEN-L-08 | 4 mar | 37 | 29 mar | 15 apr | 23 apr | 11 may | 20 may | 77 |
| 22 | KR20-LIEN-L-09 | 4 mar | 37 | 29 mar | 14 apr | 21 apr | 13 may | 21 may | 77 |
| 23 | KR20-LIEN-L-15 | 4 mar | 37 | 29 mar | 14 apr | 21 apr | 12 may | 20 may | 77 |
| 24 | KR20-LIEN-L-16 | 4 mar | 37 | 28 mar | 14 apr | 21 apr | 11 may | 21 may | 78 |
| 25 | KR20-LIEN-L-18 | 6 mar | 37 | 29 mar | 14 apr | 21 apr | 11 may | 20 may | 75 |
| 26 | KR20-LIEN-L-19 | 4 mar | 37 | 28 mar | 13 apr | 20 apr | 12 may | 20 may | 77 |
| 27 | KR20-LIEN-L-21 | 4 mar | 37 | 29 mar | 14 apr | 21 apr | 11 may | 20 may | 77 |
| 28 | KR20-LIEN-L-23 | 5 mar | 37 | 29 mar | 15 apr | 22 apr | 12 may | 20 may | 77 |
| 29 | KR20-LIEN-L-24 | 4 mar | 37 | 28 mar | 13 apr | 20 apr | 12 may | 21 may | 78 |
| 30 | KR20-LIEN-L-25 | 4 mar | 37 | 29 mar | 14 apr | 20 apr | 12 may | 21 may | 78 |
| Minimum ko'rsatkich | | 4 mar | 36 | 28 mar | 13 apr | 20 apr | 10 may | 19 may | 75 |
| O'rtacha ko'rsatkich | | 4 mar | 37 | 29 mar | 14 apr | 21 apr | 11 may | 20 may | 77 |
| Maksimum ko'rsatkich | | 6 mar | 38 | 30 mar | 15 apr | 23 apr | 13 may | 21 may | 78 |

Nav va tizmalarning shoxlanish fazasiga andoza navlari “Darmon” va “Oltin don” navlari 28 martda, “Sarbon” navi esa 29 martda shoxlanganligi aniqlandi. Andoza “Darmon” va “Oltin don” navlari bilan bir kunda 7 ta tizmalar, “Sarbon” andoza navi bilan bir kunda 18 ta tizmalar va qolgan 2 ta tizma eng oxirida shoxlanganligi fenologik kuzatuvlar natijasida aniqlandi. Yasmiqning “Darmon” va “Oltin don” andoza

navlarining g‘unchalash davri tahlil qilinganda qaytariqlar bo'yicha o'rtacha 14–aprelda, "Sarbon" andoza navining g‘unchalash davri 15-aprelda kuzatildi. "Darmon" va andoza "Oltin don" navi bilan bir kunda 12 ta tizma, "Sarbon" andoza navi bilan bir kunda 11 ta tizma va qolgan 4 ta tizma erta muddatda 13-aprel sanasida g‘unchalash fazasiga o'tganligi kuzatildi. Gullash davri yasmiqning "Darmon" navida 22-aprelda, "Sarbon" navida 23-aprelda, "Oltin don" navida 21-aprelda va 7 ta tizmalarda esa 20-aprelda ertachiroq kuzatildi. Yasmiq nav va tizmalarining dukkaklash davriga o'tishi, "Darmon" va "Oltin don" andoza navlari bilan bir kunda 10 ta tizmalar 11-mayda, "Sarbon" andoza navlari bilan bir kunda 13 ta tizmalar 12-mayda va qolgan 4 ta tizmadan ikkitasi ertachi 10-mayda, ikkitasi esa kechroq 13-mayda dukkaklaganligi kuzatildi. O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, yasmiq nav va tizmalarining pishish fazasi 19 – 21 may kunlariga to'g'ri keldi. Andoza "Oltin don" navi va tizmalardan 3 tasi 19-mayda, "Darmon" va "Sarbon" andoza navlari va 13 ta tizmalar 20-mayda va qolgan 11 ta nav va tizmalar esa kechroq 21-mayda to'liq pishib yetilganligi kuzatildi. Yasmiqning andoza "Darmon" va "Sarbon" navlarida pishishgacha bo'lgan davr 77 kunni, "Oltin don" navida 76 kunni tashkil qilganligi kuzatildi. "Darmon" va "Sarbon" andoza navlari bilan bir kunda 13 ta nav va tizmalar, "Oltin don" andoza navi bilan bir kunda 4 ta nav va tizmalar va qolgan 11 ta tizmalardan 1 tasi ertachi 75 kunni, 10 tasi esa kechroq 78 kunni tashkil etganligi tadqiqotlar natijasida aniqlandi.

Xulosa o'rnida ta'kidlab o'tish kerakki, lalmikor maydonlar sharoitida olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, yasmiq nav va tizmalarining o'suv davri davomida 1510°C ni tashkil qilganligi Qamashi tuman agrometeostansiya malumotlaridan aniqlandi. 1510°C havo-haroratida andoza navlariga nisbatan issiqlikka chidamli hamda ertapishar bo'lgan KR20-LIEN-L-18 tizma tanlab olindi va seleksiyaning keying bosqichiga o'tkazildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Afshin, A., Micha, R., Khatibzadeh, S., & Mozaffarian, D. (2014). Consumption of nuts and legumes and risk of incident ischemic heart disease, stroke, and diabetes: A systematic review and meta-analysis. *The American Journal of Clinical Nutrition*, 100, 278 – 288. <https://doi.org/10.3945/ajcn.113.076901>
 2. Faris, M.A.I.E.; Takruri, H.R.; Issa, A.Y. Role of Lentils (*Lens culinaris* L.) in Human Health and Nutrition: A Review; Springer: Berlin, Germany, 2013; Volume 6.
 3. Joshi, P. K., & Rao, P. P. (2017). Global pulses scenario: Status and outlook. *Annals of the New York Academy of Sciences*, 1,392, 6–17.
- [Wiley Online Library](#)[Web of Science®](#)[Google Scholar](#)
4. Kushwaha UKS, Ghimire SK, Yadav NK, Ojha BR, Niroula RK, “Genetic characterization of lentil (*Lens culinaris* L.) germplasm by using SSR markers. *American Journal of Agricultural and Biological Science* 2015; 1:16-26.
 5. El Haddad N, Rajendran K, Abdelaziz S, Es-Safi NE, Nadia B, Mentag R, et al.. Screening the FIGS set of lentil (*Lens culinaris* Medikus) germplasm for tolerance to terminal heat and combined drought-heat stress. *Agronomy*. (2020) 10:1036. 10.3390/agronomy10071036 [[CrossRef](#)] [[Google Scholar](#)]